

Festivalning to'rtinchi kuni

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti xotin-qizlari uchun alohida dastur asosida tashkil etilgan "Bahorning 5 kuni" loyihasi davomi ya'ni, 4-kuni fakultetlararo talaba-qizlar o'rtasida sport musobaqalari bilan boshlandi hamda qizg'in bahslarga boy bo'ldi. Sport musobaqalari va o'yinlari bo'yicha yakuniy natijalar quyidagicha:

Shahmat-shashka musobaqasi bo'yicha

1-o'rin GM fakulteti

2-o'rin SXTE va B fakulteti

3-o'rin GTQ fakulteti



Stol tennisi musobaqasi bo'yicha

1-o'rin SXTE va B fakulteti

2-o'rin QXM fakulteti

3-o'rin QSXET fakulteti



Badminton o'yinida

1-o'rin YRB fakulteti

2-o'rin QSXET fakulteti

3-o'rin GTQ fakultetiga nasib etdi.



Kunning ikkinchi yarmida esa fakultetlararo intellektual o'yinlar tashkil etildi. "Who is fast?" nomli test savollar, topishmoqlardan iborat intellektual bellashuv bo'lib o'tdi.

Bu bellashuvda:

1-o'rin QSXET fakulteti

2-o'rin SXTE va B va GTQ fakultetlari egalladi. Qizlarimiz intellektual o'yinlarda faol ishtirok etishdi.

"Who is fast" tugagandan so'ng, soat 18:30 da 3-Talabalar turar joyi 2-qavatida fakultetlararo talaba-qizlar jamoalari o'rtasida "Viktorina savollari javoblar" bellashuvi bo'lib o'tdi.

"Viktorina" bellashuvida:

1-o'rin QSXET fakulteti

2-o'rin SXTE va B fakulteti

3-o'rinni GTQ fakulteti egallab savollarga javob berib, g'olib deb topildi.



Bellashuvlarni Institut xotin-qizlar jamoasi raisi va tashkilotchilar kuzatib borishdi. Sport musobaqalari va intellektual o'yinlar, tanlovlari, turkum tadbirleri muvaffaqiyatli yakunlandi va ushbu loyihada ishtirok etgan barcha faol qizlarga minnatdorchilik bildirildi. Ertaga "Bahorning 5 kuni" festivalining oxirgi kuni ya'ni festivalda faol ishtirok etgan, g'olib bo'lgan barcha talaba va o'qituvchi, xodimlarni taqdirlash va xotin-qizlar festivalining tantanali yopilish marosimi B bino 4-qavat anjumanlar zalida soat 11:00 da institut

rahbariyati ishtirokida bo'lib o'tadi. Institutimiz yoshlari tomonidan, xotin-qizlar jamoasi tomonidan bildirilgan tashabbusni qo'llab-qavvatlab har tomonlama yordam bergan institut rahbariyati, institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi, fakultetlar rahbarlari, institut bosh hisobchisi, fakultet xotin-qizlar jamoasi raislariga loyihada qatnashgan barcha xotin-qizlar nomidan samimiy minnatdorchilik bildiramiz. Ertaga taqdirlash marosimiga barcha fakultetlar jamoalarini, professor-o'qituvchilarni taklif etamiz.

TIQXMMI matbuot xizmati